

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI


"Pasdqlayman"

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Yoshlar masalalari va ma'naviy-marifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektor

A.X. Mengliboyev,

2025 yil

LOYIHACHI IJTIMOIIY XODIMLAR TO'GARAGI



Denov-2025

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy, ijodiy, kashiy va sport to'garaklarning

NIZOMI

1. Umumiy qoidalar:

1. Togaraklar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida yuritadi.
 - a. To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish bo'yicha davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar va rejalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o'rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy va ilmiy-uslubiy ijodiy uyushmasi hisoblanadi.
2. To'garaklar talaba-yoshlarning optimal yechimlarini izlab topish ko'nikmalarini va o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan qiziqishlari bir xil bo'lgan bir guruh talabalarining ma'lum fan yoki kasb bo'yicha tajribali professor-o'qituvchilar va kasb ta'lim ustalari tomonidan ularning bilim va mahoratini oshirish uchun xizmat qiladi.
3. To'garaklar Nizomi, ilmiy rahbari hamda uning tarkibi fakultet Ilmiy Kengashida ko'rib chiqiladi va institut rektor buyrug'i bilan tasdiqlanib, faoliyatga kiritiladi.
4. To'garaklar - bilim va ta'lim sohalarida hamda mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli va tizimli asosda amalga oshirish uchun talaba-yoshlar qiziqishiga, xohishiga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qiladi, o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar tashkil qilinishi mumkin: Shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlash yo'nalishi, Sog'lom turmush tarzi, estetik va jismoniy madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Biologik bilim va madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Diniy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar yaxlitligi yo'nalishi, Siyosiy-huquqiy, iqtisodiy bilim va madaniyatni shakllantirish yo'nalishi, Texnik ijodkorlik va kasbiy malakani shakllantirish yo'nalishi, mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish yo'nalishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish yo'nalishi, shaxs va ta'lim xizmatlari yo'nalishi va boshqalar.

2. To'garaklarning asosiy maqsad va vazifalari

To'garaklarning asosiy maqsadi:

Talaba-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, ularni bilim olishga hamda yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirishga to'liq safarbar etish, shuningdek, ularni har tomonlama hayotga tayyorlashdir. Mamlakatimizda demokratik va iqtisodiy taraqqiyot taqdirini hal eta cladigan, yuksak ma'naviyatli, global fikrlaydigan, zamonaviy kashiy mahoratga ega bo'lgan, oliy ma'lumotli va yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun ijodkor, iste'dodli yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish hamda talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash asosiy maqsad qilib belgilangan.

3. To'garaklarning asosiy vazifalari:

Milliy g'oya, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni amalga qaror toptirish, inson huquqlari va qadr-qimmatini ulug'lovchi, Vatanga sadoqatli, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan keng ko'lamlil ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish:

- Talaba-yoshlarni hayotga maqsad va ishonch bilan yashashga tayyorlash, ularni vaqtini eng yuksak qadriyat sifatida qadrlash va undan samarali foydalanishga o'rgatish;
- Talaba-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish;
- Yoshlar taraqqiyotida ma'naviyatning beqiyos ahamiyatini anglatish;
- Ma'naviyatga qarshi qaratilgan xunujlar xavfi haqida tushuncha berish;
- Yoshlar ongi va qalbini loqaydlik, befarqlik kabi illatlardan forig' etish;
- Salbiy holatlarga qarshi kurashuvchanlik ruhini yoshlar ongida shakllantirish;
- Vatandashlik, milliy g'urur, ilmiy-ijodiy iste'dod kabi fazilatlarini mustahkamlash va rivojlantirish;
- Talabalarda siyosiy madaniyat va ilmiy salohiyatni yuksaltirish, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishga rag'batlantirish.

Global fikrlaydigan yosh mutaxassislarni tayyorlash sohasida:

- Talabalarni mustaqil bilim olish, aqliy salohiyat va vaqtini samarali boshqarishga o'rgatish;
 - Milliy qadriyatlarni yaxshi bilgan, e'zozlagan va axloqiy me'yorlarga amal qiladigan shaxslarni shakllantirish;
 - Mehnatsevarlik sifatini rivojlantirish;
 - Yosh avlodda milliy g'urur va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ruhiy holatni shakllantirish;
 - Mustaqil fikrlash, fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish;
 - Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ta'lim-tarbiyani takomillashtirish;
 - Talabalarda mamlakat va dunyo siyosiy jarayonlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish;
 - Globallashtiruvchi sharoitida mafkuraviy xavflarga qarshi hushyorlikni oshirish;
 - Talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltirish;
 - Bo'sh vaqtini ijodiy faoliyatga, bahs-munozaralarga yo'naltiruvchi g'oyalarni ilgari surish va targ'ib qilish.
- Kasbiy mahorati shakllangan oliy malakali kadrlarni tayyorlash yo'lida:**
- Talabalarining ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish;
 - Bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, amaliy-ijodiy qiziqishlarni rivojlantirish;
 - Ilmiy izlanish olib boruvchi talabalar va aspirantlarga moddiy va ma'naviy ko'mak berish;
 - To'garak a'zolarining ilmiy ishlari, ixtirolari bilan respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlarda qatnashishlariga ko'maklashish;
 - To'garak a'zolarining ilmiy markazlar, akademik muassasalar bilan hamkorligini rivojlantirish;

- Ilmiy ishlahmalarni tijoratlashtirishga, qo'shimcha ish joyi topishga ko'maklashish;
- Web-sahifa orqali to'garak yutuqlarini targ'ib qilish;
- Ijodiy va innovatsion muhitni yaratish va faol qatnashish.

4. To'garaklarning huquqlari

1. Universitetdagi ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish;
2. Tashkiliy-tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish;
3. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;
4. Ilmiy va ijodiy hamkorliklar o'rnatish;
5. Fakultet kengashi qaroriga binoan talabalar o'rtasida tanlov tashkil qilish;
6. Mehnat bozori talablariga mos yo'nalishlarda chuqur bilim berish imkoniyatini yaratish.

5. To'garaklarga a'zolik

Nizom va to'garak maqsadlariga rozilik bildirgan abituriyent, bakalavr va magistratura talabalarini millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar a'zo bo'lishi mumkin. Qatnashish ixtiyoriy bo'lib, og'zaki rozilik kifoya.

6. To'garak a'zolarining huquq va burchlari

1. Teng huquqli ishtirok etish, Nizomga amal qilish;
2. Taklif va tavsiyalar bilan chiqish;
3. Maxsus auditoriyalar, o'quv texnologiyalardan foydalanish;
4. Mashg'ulotlarga qatnashish va sababsiz qoldimaslik;
5. O'quv qurollarini olib kelish, xavfsizlik va sanitariya qoidalariga amal qilish.

7. To'garaklarni tashkil etish va rahbarlik qilish

To'garak fakultet dekani tavsiyasi asosida direktor buyrug'i bilan tashkil etiladi. Tajribali ustozlar rahbarlik qiladi. Rahbar vakolatlari:

- Nizomga o'zgartirish kiritish;
- A'zolar sonini belgilash (kamida 5 nafar);
- Faoliyat yo'nalishini aniqlash;
- Loyiha va dasturlarni muhokama qilish;

8. To'garaklarni moliyalashtirish

To'garak xarajatlari byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar, shuningdek:

- Shartnoma asosidagi ishlar;
- Ijara xizmatlari, pullik xizmatlar;
- Homylik mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

9. To'garak faoliyatini tugatish tartibi

Institut Kengashining qarori asosida amalga oshiriladi.

“Loyihachi ijtimoiy xodimlar” to'garagi mazmuni

Kirish

Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish, aholi muammolarini hal etish, yoshlarni tashabbuskor va mas'uliyatli qilib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Ijtimoiy loyiha yaratish, uni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalari har bir yosh ijtimoiy xodim uchun zarur bo'lgan kompetensiyalardir. Shu bois “Loyihachi ijtimoiy xodimlar” to'garagi o'quvchilarni ijtimoiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, loyihalar orqali ularning yechimini taklif etish hamda amaliy tashabbuslar bilan jamiyatga foyda keltirishga yo'naltirilgan.

To'garak quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

- ❖ O'quvchilarda ijtimoiy loyihalashtirish madaniyatini shakllantirish;
- ❖ Ijtimoiy sohadagi dolzarb muammolarni ko'ra olish va ular uchun innovatsion yechimlar taklif etish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ❖ Tashabbuskorlik, ijodkorlik, jamoa bilan ishlash, liderlik fazilatlarini mustahkamlash;
- ❖ O'quvchilarni amaliy loyiha boshqaruvi, taqdimot o'tkazish, tadqiqot asoslari bilan tanishtirish;
- ❖ Mahalla, ta'lim muassasasi yoki jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi kichik ijtimoiy loyihalarni yaratish va amalga oshirishga yo'naltirish.

Treninglarning mazmuni:

Ijtimoiy loyiha tushunchasi, turlari va bosqichlari haqida nazariy bilimlar berish, shuningdek, muammoni aniqlash, tahlil qilish, statistik ma'lumotlar yig'ish va asoslash usullarini o'rgatish hamda loyiha maqsad va vazifalarini belgilash, reja tuzish, resurslar va hamkorlarni aniqlash. Taqdimot tayyorlash, loyiha himoyasi, jamoa oldida nutq so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quvchilar tomonidan kichik amaliy ijtimoiy loyihalar ishlab chiqish (ekologiya, mehr-oqibat, sog'lom turmush tarzi, mahalla faolligi, volontyorlik, yoshlar madaniyati va boshqalar).

Loyiha jarayonini monitoring qilish va natijalarni baholash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar.

Mahalliy tashkilotlar, ta'lim muassasalari, yoshlar markazlari bilan hamkorlikda loyihalarni sinovdan o'tkazish.

TO'GARAK QATNASHCHILARI RO'YXATI

№	Talabalarning ismi sharifi	Kurs	Guruh	Ta'lim yo'nalishi
1	Abdurazzoqova Maxsiyo Abdusattor Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
2	Absalamova Durdona Oybek Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
3	Akaboyeva Durdona Nabi Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
4	Allanazarova Dilorom Muxiddin Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
5	Almardonova Risolat Parda Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
6	Axmatova Balxiyaxon Panji Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
7	Ergasheva Nafisa Shaxriddin Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
8	Ibragimova Madina Ergash Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
9	Ismoilova Madina Olimjon Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
10	Jo'rayeva Shoxsiya Rovshon Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
11	Mengqobilova Nilufar Ahmatovna	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
12	Nabijonova Jasmina Sherzod Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
13	Nurullayeva Dilbarjon Tajibay Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
14	Nurullayeva Sevara O'ral Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
15	O'ktamova Dilnura Dilshod Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
16	O'roqova Umida Ortiq Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
17	Qayumova Durdona Abdulalim Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
18	Rayimnazarov Asilbek G'ulomjon O'G'Li	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
19	Shamsiyeva Mu'tabar G'Affor Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
20	Shodiqulova Kamola Xujamqulovna	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
21	Suyunova Zarnigor Fayzulla Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
22	Tangirova Mohigul Eshmirzo Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
23	Xamzayeva Umida Xaydar Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
24	Xayrullayeva Zulfizar Hamzayevna	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
25	Xo'Janova Gulsun Farhod Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish
26	Xurramova Maxsiyo Jo'raqobil Qizi	1 kurs	12/jtish-2025	Ijtimoiy ish

Izoh: “Loyihachi ijtimoiy xodimlar” to'garagi haftaning juma kuni soat 13⁰⁰ da boshlanadi.

To'garak rahbari: starjyor-o'qituvchi F. Xoliqov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi qoshidagi "Loyihachi ijtimoiy xodimlar" ilmiy to'garagining rejası

№	Talabani ¹ g F.I.Sh.	Soat	Kun	Imzo:
1.	Loyiha haqida umumiy tushuncha, kirish	2		
2.	Tanlangan loyiha haqida qisqacha umumiy ko'rsatkichlar, maqsadlari	2		
3.	Target guruhlari, loyiha hamkorlari	2		
4.	Loyihani amalga oshirish boschiqlari	2		
5.	Harakat dasturi	2		
6.	Vaqt jadvali va bosqichlar	2		
7.	Loyiha natijalari / ta'siri	2		
8.	Moliyaviy qism: moliyaviy ehtiyojlar va manbaalar	2		
9.	Loyihani e'lon (reklama) qilish usullari	2		
10.	Loyiha haqida umumiy xulosa va taqdimot	2		

To'g'arak rahbari:

starjyor-o'qituvchi F. Xoligov

Qo'shimcha tadbirlar uchun izohlar:

To'g'arak rahbari:

starjyor-o'qituvchi F. Xoliqov

